“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi direktori

_____ A. Sa’dullayev

“__” _____20__y.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga fuqarolar tomonidan kelib tushadigan murojaatlarni qisqa 1093 ishonch telefon raqami orqali qabul qilish

REGLAMENTI

1. Xizmatni yoritish (passport)

1.1. Xizmat nomlanishi

Murojaatlarni qisqa 1093 ishonch telefon raqami orqali qabul qilish.

1.2. Xizmat natijasi

Fuqarolardan kunning istalgan vaqtida Yoshlar ishlari agentligiga markaz orqali kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida, to‘liq va qonun talablariga qat’iy rioya etgan holda sifatli ko‘rib chiqilishini tashkil etish va nazorat qilish, bu borada tezkor axborot almashinuvi ta’minlash orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organi

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

1.4. Huquqiy asos

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-sonli Qonuni.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchi

O‘zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslari yoki ularning qonuniy vakillari.

1.6. Ijro muddati

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuniga asosan Agentlikka kelib tushgan murojaatlar masalasini mazmunidan kelib chiqib o‘rnatilgan tartibda vakolat doirasida **15 kun** (o‘n besh kun) ichida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirishlar hamda qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, **1 oy** (bir oy) gacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tashkilot raxbari tomonidan, istisno tariqasida asoslantirilgan bildirgi yoki murojaatdagi masalani o‘rganish uchun qo‘shimcha vaqt talab qilinganligini inobatga olib, fuqaroga ma’lum qilish orqali ko‘pi bilan **1 oy** (bir oy) ga uzaytirilishi mumkin.

Fuqarolardan kelib tushadigan taklif Yoshlar ishlari agentligiga kelib tushgan kundan e’tiboran **1 oy** (bir oy) gacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga **10 kun** (o‘n kun) lik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

1. Xizmat oluvchilarga ma’lumot berish

1.1.Ma’lumot hajmi va tarkibi

Agentlik sohaviy xizmatlari bo‘yicha ko‘rib chiqilgan murojaatlarga yakuniy javob xatida murojaatda keltirilgan fuqaroning xar bir vajiga aniq va batafsil ma’lumotlar bayon etiladi.

1.2. Batafsil ma’lumot berish

Bir shaxsning aynan bir masala bo‘yicha oldingi murojaatiga javob berilmayotganligi haqidagi murojaati agar uni qonunda belgilangan tartibda ko’rib chiqish muddati o‘tmagan bo‘lsa bu haqda muallifga tushuntiriladi.

2. Xizmat ko‘rsatish

2.1 Ish vaqti

Murojaatlar ishonch telefoni orqali 24 soat davomida uzluksiz qabul qilinadi.

3. Xizmat ko‘rsatish tartibi.

3.1. Xizmat ko‘rsatish uchun undiriladigan haq

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish xizmati bepul.

3.2. Rad etish asoslarni

Muallif tomonidan shaxsiga oid ma’lumotlar berilmagan taqdirda, unga “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan murojaati ko‘rib chiqilmasligi tushuntiriladi.

4. Sifatni ta’minlash.

4.1. Sifat ko‘rsatkichlari

Jismoniy va yuridik shaxslarning Yoshlar ishlari agentligiga kelib tushgan murojaatlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek ularning huquqlari erkinliklari va manfaatlarini samarali ta’minlash.

4.2. Sifatsiz xizmatidan shikoyat etish

Murojaati yuzasidan qoniqish hosil qilmagan taqdirda jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.